

F. Erkabayeva  
N. Mirsolihova



RANGTASVIR

Oz  
756.7  
E 63

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI  
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI

F.Erkabayeva  
N.Mirsolihova

RANGTASVIR

*O'quv qo'llanma*



Toshkent  
“Info Capital Group”  
2018

UO'K: 75.02(075.8)

KBK: 85.14

E 78

*Taqrizchilar:* F. Axmadaliyev – Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI  
“Dastgohli rangtasvir” kafedrasi dotsenti;

U. Nurto耶ev – Nizomiy nomidagi TDPU Badiiy grafika kafedrasi p.f.n.

E 78 **Rangtasvir:** O‘quv qo‘llanma. Erkabayeva F., Mirsolihova N. / Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti. – T.: Info Capital Group, 2018. – 92 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanma mamlakat taraqqiyot uchun rivojlanayotgan tarmoqlar, davlat dasturlari asosida joriy etilayotgan san’at yo‘nalishi uchun kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. O‘quv qo‘llanma tasviriy san’atning rangtasvir fani o‘qitiladigan oliy o‘quv yurtlari talabalari va o‘qituvchilariga mo‘ljallangan bo‘lib, dastur asosida rangtasvir yo‘nalishi bo‘yicha akvarel bo‘yoqlari bilan ishslash usullari, xomaki etyudlar, natyurmort chizish kabi mavzular bo‘yicha talabaning kasbiy bilim va mahoratini oshirishga mo‘ljallangan. Unda rangtasvir amaliyotida bajariladigan ish turlari va ularning tadrijiy ketma-ketligi haqida keng ma’lumot va rangtasvir namunalari berilgan.

UO'K: 75.02(075.8)

KBK: 85.14

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 24-avgustdagi 603-072-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9943-5443-4-5

© Erkabayeva F., Mirsolihova N., 2018.  
© “Info Capital Group”, 2018.

## KIRISH

Mamlakatimiz badiiy ufqida har yili yangi-yangi ijodi maftunkor san'atkorlar paydo bo'lib, ular san'atimizni yanada rivojlantirish va boyitishga hissa qo'shib kelmoqda. Darhaqiqat, tasviriy san'at tushunchasini zamonaviy namunalardan orqada qolmasdan o'zlashtirmog'imiz lozim va kelajak avlodga ulashmog'imiz darkor. Madaniyat taraqqiyoti natijasida xalqlar o'rtasidagi madaniy, ma'naviy aloqalar rivojlanib borar ekan, san'atga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda. Respublikamizda badiiy ta'lif islohotlarini yanada chuqurlashtirish, sohalari bo'yicha malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkor mutaxassis ko'nikmalarini o'zida namayon etuvchi va sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi yo'nalishini topishda, ayniqsa, badiiy asarlar yaratish undagi chizmalarining aniqligi, asarning mazmun va mohiyati jihatidan zarur bo'lib malakali kadrlarni tayyolash uchun fan sifatida zarurat juda kattadir.

San'at – insonlarning ichki kechinmasini namoyon etadi. U makon va zamonda aks etadi. Makonli san'at bu his-tuyg'ularni tasvirda aks ettirish hisoblanadi. Tasviriy san'atda ko'plab tur va janrlar davrlar o'tishi bilan o'z mavqeysi va o'rniga ega bo'la boshladи.

Bizning mamlakatimizda san'at tarbiyaning kuchli vositasi bo'lib, insonlarni ilg'or qarashlar bilan qurollantirishda va fikrlarini mustahkamlashda muhim ro'li o'ynaydi.

O'zbekiston Tasviriy san'ati jahon hamjamiatida sodir bo'la-yotgan jarayonlar bilan hamnafas bo'lib, har bir ijodkor o'z qarash va kechinmalarini yangicha uslub va shakllarda ifoda etishga intilish bilan xarakterlanadi. O'zbekistonda yangi ma'naviy g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida, zamonaviy san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi.

Tasviriy san'at sohalarini o'rganish tasviriy san'at yo'nalishida tahsil oladigan talabalar uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki rassom ijodkor uchun har bir davr, har bir yo'nalish va uslub uning ijodi rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har bir ijodkor o'z asarlarida o'lmas g'oyalarini bosh maqsad sifatida ifoda etsa, hech shubhasiz adabiyot ham madaniyat va san'at ham ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'z ijtimoiy vazifasini to'liq ado eta oladi. Rangtasvir fani orqali bo'lg'usi rassomga nafaqat qo'yilmadagi buyumlarning shakl-shamoyilini o'rganish, uni his qilish hamda bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi haqida ham tushuncha berib boradi.

Rangtasvirchi rassom bu bilan biror bir asar ustida ishslash jarayonida assosan chizmasini mukammal darajada ishslash, va shaklini his qilish qobiliyatini rivojlantirib boradi. Rangtasvir nafaqat tasviriy san'at turlaridan biridir, balki shu bilan bir qatorda u tasviriy san'atning hamma turlari uchun asos hamda badiiy mahorat garovi hamdir. U bo'lg'usi rassom uchun tasviriy san'at g'oyalarini ifoda etishda keng imkoniyatlar va erkinliklar tug'diradi. Rangtasvir tahlilining barcha tasviriy san'at mutaxassislari uchun o'ta muhim bo'lib, u badiiy tasvirlash madaniyatiga ega bo'lgan realizm an'analariga sodiq rassom shaxsni shakllantirish maqsadlarini ko'zlaydi.

Rangtasvir fani Amaliy san'at va Dizayn fakultetlaridagi bo'limlari uchun asosiy vazifasini o'tab, talabalarga badiiy didlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Amaliy san'at va Dizayn ustasi birinchi navbatda mutaxassislikdan qat'iy nazar tabiatidagi shakl-shamoilni va undagi takrorlanmas ranglarni kuzatib borishi lozim. Bu kuzatuvni rivojlantirish uchun Rangtasvir fani juda ham muhim rol o'ynaydi. Bo'lajak rassomlarning badiiy qarashini va kuzatuvlarini rivojantiradi. Rangtasvir faniga katta ahamiyat berishimiz lozim.

### Fanning maqsad va vazifalari

Ta'lim maqsadi ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy hayotdagi tub o'zgarishlar, fanning intensiv rivojlanishi, ta'lim modernizatsiyasi, yangi didaktik imkoniyatlar, insonparvarlashtirish shubhasiz ta'lim maqsadini ham tubdan o'zgartirdi. Ta'lim maqsadining tubdan o'zgarishi ta'lim mazmunida o'z ifodasini topadi. Tasviriy san'atga oid Akademik bilimlarni egallashning barcha bosqichlari, ijodiy masalalari, yechimi mayjud voqeylekni o'rganib tafakkur etishi (fikrlash) va ularni badiiy obrazlar shaklida yaratish bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i lozim.

Rangtasvir – barcha tasviriy san’at turlarining (dekorativ amaliy san’at, grafika, haykaltaroshlik va hokazolar) asosi hisoblanadi.

Rassom tasviriy san’at turlarining qaysi birida ijod qilishidan qat’iy nazar chizmatasvirga hamda rangtasvirga asoslanadi. U o’zining kuzatishlari, asar oldida kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda, dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. Katta san’at asarlarini yaratishda esa ushbu bajarilgan chizgilar, rassomga yordamchi manba bo’lib xizmat qiladi.

Rangtasvir mashg’ulotlari ko‘rib-kuzatib to‘g’ri tasvirlash, borliqni idrok etish, ko‘z, ong va sezgi organlarini shakllantirish bo‘lajak rassomlarga zarurdir.

Rangtasvir mashg’ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo‘lajak amaliy san’at dizayn ustalarini tayyorlashda asosi mezon hisoblanadi. Rangtasvir darslari talabalarga nazariy va amaliy mashg’ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, amaliy mashg’ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo‘lajak rassomlarga ularning keyingi ijodiy faoliyatlarida muhimdir. Badiiy ma’lumot berishda borliqni haqqoniy tasvirlash talabalarga amaliy bilimlarni beribgina qolmay, balki ularning umumiy dunyoqarashlarni o’stirishda katta ahamiyatga ega.

Realistik rasm chizish san’ati, borliqni haqqoniy obrazlarda tasvirlash mahoratini rivojlantirish o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Ta’lim jarayonida talabalarda jahon realistik mакtablarida badiiy merosiga ongli ravishda, ijodiy yondashishni tarbiyalash kerak.

### **Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar**

“Rangtasvir” o‘quv topshiriqlarini bajarishda bakalavr:

- rangtasvir san’atining o‘ziga xos xususiyatlarini anglash;
- o‘quv topshiriqlari maqsad va vazifalari;
- ranglar uyg‘unligini va dekorativ tasvir yahlitligiga erishish;
- rangtasvir ifodaliligi;
- asarlar ustida ishslashda artistizmga yordam beruvchi kasbiy malaka komplekslari;
- dekorativ rangtasvir madaniyati;
- shakllar plastikligi tizimi va uning qonunlari;
- jismlar dunyosi va tirik tabiat shakllanishining uyg‘unligi;

- tasvirning grafikasiga erishish;
- emotsional ta'sirchanlik vositalarining ifodaliligi;
- ranglar dekorativ yahlitligiga psixologik ta'sirchanlik bilan aloqasi;
- inson qiyofasi – tasvirlanuvchi yarim qomat, yahlit qiyofa, turli rangdagi matolardan iborat bo'lgan o'quv topshiriqlari;
  - o'quv topshiriqlari plastik kompozitsion obraz yechimlari;
  - yaratiladigan asarlar mavzu doirasida kompozitsion ifodalilikka hizmat qiluvchi tasviriy ashyolar haqida tasavvurga ega bo'lishi;
  - o'quv topshiriqlarda kompozitsion muhit tashkil etuvchi atributlar singari tasviriy ashyolarni rangtasvirda jamlash;
- turli xildagi matolar ishtirokida bajariladigan tasviriy asar sifatida shakllanishida ko'plab dekorativ asar yaratish qonun qoidalarini o'rganish;
- tasviriy san'atda asrlar mobaynida shakllangan uslubiy an'analarga rioya etish va amalda qo'llay bilish;
- rangtasvir o'quv kursida mashg'ulotlarning asosiy shakli insonning jonli qiyofasiga qarab turli yorqin matolar fonida aks ettirish;
- suratning asosiy tuzilishi qonuniyatlarini;
- ijodiy tafakkur yurita olish va atrof-muhitni badiiy dekorativ talqin eta olishni;
- insonning qiyofasiga qarab, tasvir etish jarayonida, tasvir vositalarining barcha unsurlari o'zaro mutanosibligiga erishish;
- turli insonlar shakl – shamoili, fe'l – atvori, ruhiy holatini dekorativ holatda ifodalab berish;
- rangtasvirda mahoratini namoyon qilish;
- ranglar uyg'unligining psixologik ta'sirchanlik bilan aloqasi xaqida;
- o'quv topshiriqlari har bir detalni tasvirdagi bir yahlitlikka buy-sundira olish;
- rangtasvirda kasb mahoratini namoyon qilish;
- tasvir mavzusi va timsolning asos mohiyati, yetakchi jihat va xususiyatlarini to'g'ri belgilab berish va badiiy mahorat ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Talaba mustaqil ta'limning asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalilanildi:

Talabalarni mustaqil ishga doimiy ishtiyooq uyg'otish hamda tez bajariladigan chizgilar bajarilishi imkoniyatlarini o'stirib, obrazli tafakkurni tarbiyalamog'imiz lozim.

Klassik me'rosni o'rganishda san'at ustalarining mahorat bilan ishlangan, namuna bo'la oladigan chizmatasvir asarlaridan nusxa ko'chirish tavsiya etiladi. Chunki bunday vazifalar talabalarga asarning plastik tizimini tushunishda yordam beradi.

Rangtasvir o'qitishning avvalgi uch kursi davomida talaba chizmatasvir va rangtasvir ta'limining hamma tasvir usullari va mahoratini egallashi lozim.

Egallangan bilimi va ko'nikmalardan foydalangan holda I kurs rangtasvirning yanada chuqur va murakkab vazifalari ya'ni dekorativ kompozitsiyalarning yechimini bajara olish ko'nikmasini egallah zarur.

Yozgi amaliyot davrida esa tabiat manzaralarini o'rganish hamda sanoat muassasalari, tarixiy obidalar interyer va eksteryerlarini (binoning ichkarisi va tashqarisini) chizmatasvir va rangtasvirda tasvirlanadi.

### **Dasturning informatsion – uslubiy ta'minoti**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy ilg'or interfaol usullaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining prezentsiya (taqdimot), multimedia va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalilanildi. Amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, klaster, blits-so'rov, guruh bilan ishlash, insert, taqdimot, keys-stadi kabi usul va texnikalardan keng foydalilanildi.

Ta'mirlash sohasida ilmiy-tadqiqot nazariyasи, hamda ilmiy-teknika taraqqiyotining yutuqlarini qo'llashni bilish.

"Amaliy san'at asarlarini ta'mirlash asoslari" fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy interfaol metodlari, pedagogik va axborot – kommunikatsiya (mediata'lism, amaliy dastur paketlari, prezentsion, elektron-didaktik) texnologiyalarining qo'llanilishi nazarda tutiladi; kompyuter grafikasi, AUTO CAD, ARHI CAD, 3D MAX dasturlaridan foydalilanildi.

Talaba ta'lrim jarayonida o'qitish ishlarini zamon talabiga mos ravishda kompyuterlar yordamida kompyuter grafikasiga oid ashyolar turlari yozilgan dasturlar kompakt-disklardan, INTERNET tarmoqning "Amaliy san'at asarlarini ta'mirlash" faniga va "Ta'mirlash" sohasiga oid ma'lumotlardan, yangi texnologiyalar na'munalari, shuningdek, video filmlar, slaydlar, albomlar, va kafedra talabalari bajargan ishlardan ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish asosida olib boriladi. Taraqqiy etgan raqamli fotoapparatlarda tushurilgan hamda RNOTOSHOP dasturida nusxalangan va maxsus ta'mirlanajak obyektlarni uch o'lchovli (3D) proeksiyalarga keltirib, badiiy bezak shakllarini asl holatiga yaqinlashtirib, loyihalarni bajarish ko'zda tutiladi. Amaliy san'at asarlarini ta'mirlash amaliyotlarida bajarilgan nusxalarni va fotolarni CMYK dasturiga o'tkaziladi, shundan so'ng ularni **COREL DRAW** dasturida foydalanish mumkin. **COREL DRAW** dasturida chizmalar, zarur yaxlit holatga keltirilib bajarilgan tayyor ishlar, bosmaga topshirish uchun tayyorlanishi mumkin.

---

## I BOB. RANGTASVIR FANINI O'QITISHNING NAZARIY MASALALARI

### 1.1. Rangtasvir fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari, rangtasvirda ishlash usullari tarixi

O'zbekiston zamonaviy rangtasvir san'atining asosiy tamoillari uslublarining keng ko'lamligi hamda yuqori va chuqur ijrochilik mahorati, obrazlar mazmundorligini saqlagan holda, realistik an'anlardan tortib, avangardlik, dekorativ yo'lidagi izlanishlargacha namoyon bo'ladi.

O'zbekiston tasviriy san'ati nihoyatda boy va rang-barangdir. O'l-kamiz san'ati eng qadimgi davrlardan boshlab, jahon madaniyati ravnaqiga o'z hissasini qo'shmaqda. Uni o'rganish uchun tarixga nazar tashlashimiz lozim. Rangtasvir fanining paydo bo'lishi, jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida rangtasvir fanining o'rni va rolining ortib bormoqda. O'zbekistonda erkin demokratik, fuqarolik jamiyatni shakllantirishda rangtasvir fanining ahamiyati kattadir.

Rangtasvir fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni va ularga nisbatan bo'lgan munosabatining o'ziga xosligi. Rangtasvir fanining ilmiy, nazariy, amaliy va kelajakni belgilash funksiyalari. Yosh avlodni ijodiy dunyo qarashi tarbiyasi hamda ta'lim muammosini ishlab chiqishda rangtasvir fani juda muhim.

Rangtasvir fanining asosiy kategoriyalari: tarbiya, ta'lim, ma'lumot, o'qitish, o'zini-o'zi tarbiyalash, mustaqil o'qish kabilalar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash sharoitida rangtasvir fanining badiiy ijodiy ahamiyati, ularning vazifasi, yo'nalishlari. Rangtasvir fanining tadqiqotlarning turlari: asosiy, nazariy, amaliy.

Rangtasvir fanining badiiy ijodiy metodlari, tavsifi va turlari. Amaliy tadqiqot uslublari: qiyosiy, tarixiy tahlil qilish va loyihalash-tirish, empirik usullari, ilmiy pedagogik kuzatish va uning turlari.

Dizayner talabalariga rangtasvir fanining asosiy vazifasi tala-balarda ijodiy tasavvurni o'stirish; hayotda voqeylekni ko'rib idrok etish; badiiy did va madaniyatni tarkib toptirish, barcha san'at soha-

larida kompozitsiyani qulay bilishi; fandan olgan bilimlarini hayotda va o'qituvchilik kasbida unumli foydalanishni ta'minlashdan iborat.

Rangtasvir fanining asosi amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijod-korlikka yo'naltirish va mustaqil tasviriy san'at namunasini yaratish ustida ishlashni shakllantirishga yo'naltirilgandir. San'atda mazmun va g'oyaning eng yaxshi yechimini topish, ijodiy mahoratni oshirish nafosat tarbiyasining zaruriy qismi, muhim o'rnidir.

Rangtasvirning tasviriy san'atda tutgan o'rni; dastgohli, monumental, dekorativ rangtasvirning farqlovchi tomonlar, realistik rangtasvir qonunlari, kompozitsiya asoslari, issiq va sovuq ranglar, kolorit, ritm, tus, yorug'lik, rang dog'i, umumiylis tus va rang bo'yog'i, turli tasvirlash materiallari xususiyatlari, rang uyg'unligi qonuniyatları, turli tasvirlash vositalaridan foydalanish yo'llari, rang gammasi, motiv, hissiylik, yahlit ko'rish, rangtasvir ishslash metodlari; suyultirgichlar, mato, gruntlar, suyuq ishlov berish, surtma; rangtasvir ashyolar; akvarel, tempera, guash va moybo'yoqlar to'g'risida ko'nikmalariga ega bo'lmog'i kerak.

Xalqimiz madaniyati, san'ati tarixi rangtasvir bo'yicha boy badiiyma'naviy merosga ega. Qadimgi Sharq rang mohiyati estetikasiga doir qarashlar, tajribalar jahon san'ati taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazgan. Qadimgi yunon olimlarini ko'proq falsafiy muammolar band qilgan bo'lsa-da, rang masalasida asosan his-hayajon bilan chegaralangan edilar, rangning estetik mohiyati bo'yicha kam ma'lumot qoldirganlar. Geraklit, Demokrit, Platon, Aristotel, Lukretsiylar rang tabiatini haqida fikr bildirishga harakat qilganlar. Geroklit dunyodagi barcha narsalar harakatda va o'zgaruvchan, ularni hech kim o'zgartira olmaydi, degan.

Aniksagor nazariyasiga ko'ra rang teskari vaziyatda ko'rindi. Aks etish kunduzi nur tufayli yuz beradi. Oqqa qora, qorada oq ko'zga tashlanadi, bunda sezgilar ojizlik qiladi, teskari rang bo'lmasa narsa rangini ilg'ab ololmaydi. Narsalar tez o'zgaruvchan bo'lgani uchun hissiyot ularni to'liq idrok etolmaydi. Qorong'i o'rtada paydo bo'lgani uchun ranglar birikuvidan zamin hosil bo'ladi. Binobarin, qorong'i ranglar og'irlikni, oqlik yangillikni ifodalaydi, ranglar qaramaqshilikda bo'ladilar. Aristotel ranglarning bunday qo'shiluvchanligiga qarshi chiqadi. Uning fikriga ko'ra, aqldan boshqa hamma narsada ranglar qorishib ketgan. Narsalar qo'shilguncha, deydi Aristotel, alohida o'zi bo'lishi kerak, shuning uchun ularning birikuvidan rang hosil bo'ladi, deyish noto'g'ridir.

Feofrast hissiyotlar kuchli kechinmalarga sabab bo'lishini, masalan, toza va yorug' ko'zga ega bo'lgan hayvonlar uzoqni ko'radigan, kuchli ko'zga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Demokritda rangning estetik mohiyati boshqacharoq. Aristotel aytganiday deb ta'kidlaydi u, oq yumshoq, tekis, qora g'adur-budurroq. Rangning o'zi yo'q, narsaning turishiga qarab ranglar o'zgaradi. Demokrit 4 ta rangni qabul qilgan. Ranglar qo'shilishiga qarab, rang go'zalligi yuzaga chiqadi. Demokrit fikriga ko'ra, oqqa qora va ko'kimir, yashil aralashsa go'zal rang paydo bo'ladi. Yashil bilan oq aralashsa, joziba rang paydo bo'ladi. Demokritning ta'lomitiga ko'ra, ba'zi buyumlarning oq rangiga soya tushsa qoraga aylanadi. Lekin bunda ko'zga tashlanuvchi havo hamda ko'zning ko'rish nuqtasi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Atomlar qarama-qarshi bo'lgani uchun yashil qizilga nisbatan, qora oqqa nisbatan qarama-qarshi bo'ladi. Uning fikriga ko'ra tabiatda hech qanday rang yo'q. Ranglar tabiatdagi narsalarning qo'yilishi, turishi, shaklidan paydo bo'ladi. Shuning uchun to'rtta (oq, qora, yashil, sariq) ranglar tasavvurda hosil bo'ladi.

Uyg'onish davrida san'at va rang estetikasi yangi pog'onaga ko'tariladi, insonparvarlik ulug'lanadi. Uyg'onish davrida adabiyot va san'at yuksak darajaga ko'tariladi. Bokachcho, Petrarka, Ariosto, Erazm Rotterdamskiy, Rable, Shekspir, Servantes, Alberti, Rafael, Leonardo da Vinchi, Titsian, Mikelandjelo, Mozachcho, Perudjinolar jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shdilar. Me'morchilikda inson va tabiat birinchi o'ringa ko'tariladi, ijodkorlar voqelikni asosiy tasvir quroliga aylantiradilar. San'atda ko'p bo'yoqlilik, voqelikning his-hayajonli tasviri kuchayadi, rassomlar uyg'unlikka, rangli chiroy va narsalar go'zalligiga ko'proq ahamiyat berishadi. Ijodkorlar voqeylikning rang-barang obrazini ifodalash yo'llarini izlaydi. Proporsiya, oraliq va tirik mavjudotning qomati masalalari badiiy diqqatni jalg' etadi. Leonardo da Vinchi ilmsiz tajriba bilan mashg'ullik kapitansiz va kompassiz kemaga o'tirish bilan barobar, degan edi. Alberti me'morlardan yuksak iste'dod, bilim, katta tajriba, ko'ra bilish va tafakkur talab qilgan. Go'zallik, garmoniya, mutanosiblik voqey va xayoliy nafosatni his qilishga yordam beradi. Ko'z faqat narsalarnigina emas, rang-baranglikni ham ajratib tasvirlashga da'vo etadi. Leonardo da Vinchi "Rangtasvir traktati" asarida tabiat va inson go'zalligini ehtiyyot qilish, daqiqalarda his qilishni, kechqurun ayol va erkak sozlarini kuzat, ulardagi o'zgarishni tezda farqlay olasan, deydi.

Alberti fikriga ko'ra, go'zallikdan zavqlanmay, hunuklikni rad etmagan odamni uchratish qiyin, go'zallik tuyg'usi, ranglarni his qilish inson uchun tug'ma qobiliyat. Hissiyot jismlardagi sifat, go'zallikni sezishga yordam beradi. Go'zallikni tushuntirishdan ko'ra his qilish oson. Go'zallik tabiatning o'zida tug'iladi, rassom uni ko'ra bilishi, rangni his qilishi kerak. Dunyoning o'zi go'zal, rassom uni kashf etishi va rangli obrazlarda aks ettirishi zarur.

Klassitsizm (XVII–XIX asrlar) davrida tasviriy san'at ranglarning turi va ahamiyati bo'yicha o'z intihosiga yetib qolgan bo'lsa-da, yangi estetik, falsafiy, san'atshunoslik qarashlar vujudga keldi. Bunda qadimgi Gretsya va Rim badiiy-estetik qarashlariga ta'zim kuchli edi. Aristotel, Goratsiya qarashlariga asoslanib, ulug'vorlik, ideal, qahramonlik san'at markaziga ko'chadi. Siyosiy, axloqiy, estetik hodisalar rang, syujet orqali o'z ifodasini topadi. Klassitsizmga ko'ra asarlar mantiqan, hissiyotli garmoniya bilan bitilgan, obrazlar tipiklashtirilib antik san'atga muqoyil bo'lmog'i kerak. San'at ko'proq aqlga emas, tuyg'ularga ahamiyat bersa, uning rangi o'zgarib, rang-baranglik vujudga keladi.

XIX, XX, XXI asrlarda tasviriy san'atning tarixiy takomili bilan bog'liq bo'lган simvolizm, romantizm, realizm, tanqidiy realizm, ispressionizm, ekspressionizm, abstraksionizm, modernizm, sotsialistik realizm singari uslub va yo'nalishlar bilan barobar, ranglar mohiyati estetikasi ham ma'lum darajada kengaydi va chuqurlashdi. Unga Sharq san'atiga xos bo'lган xususiyatlар ham ta'sir eta boshladi. Lekin rassom uchun rang tabiatining estetikasi asosiy tasviriy vosita bo'lib qolaveradi. XXI asrda ham rang tizimining estetik qirralari qanday bo'lsa shunday saqlanib, yanada chuqurlashib, oddiyashib o'z badiiy-estetik mohiyatini yo'qotmadi.

Shu munosabat bilan hozirgi paytda rangtasvir fani mohiyatining ayrim ko'rinishlarini talabalarga tushuntirib borish amaliyot uchun nihoyatda foydalidir.

Ranglarning har birini o'z ma'nosи, ramzi va falsafasi bo'lib, ular inson ruhiyatiga va ongiga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Ranglar insoniyat tafakkuri, orzusi, g'ururi, e'tiqodi, odatlari ijodi va san'ati bilan bog'liq. Shunday ekan ranglar ma'nosi ramzi va falsafasini har tomonlama chuqur va keng o'rganish zarur. Bundan kelib chiqib, halqimiz hayotida turli ranglar bilan bog'liq bo'lган fikr, g'oja, e'tiqod, odat marosim va ijod turlari ko'p bo'lGANI uchun ularning

falsafiy ma’nosiga(faqat yetti asosiy rang misolida) to’xtalishga harakat qilamiz.

Musavvir fikri va asarning asosiy g’oyasini tushunish oson ish emas, albatta, rangtasvir tilini muttasil o’rganish, taffakurni estetik did va tuyg‘u idrokni doimo rivojlantirib borish zarur.

Musavvir rangtasvir vositalari ko’magida betakror ijod asarlar yaratib, bizni hayratga soladi, dilimizga quvonch bag‘ishlaydi, turli kechinmalar orqali ruhimizni oziqlantiradi va o‘z mahorati bilan sirli fikrlariga oshno qiladi.

Rang tabiatda mavjud barcha narsalar shakllarini, atrof-muhit go‘zalligini, turli kayfiyat va his tuyg‘ularini ifodalay oladi. Rangni turlicha idrok qilish mumkin, uning vositasida, fikr yuritish, loyihalash, konstruksiyalash qurish imkoniyatlari mavjud «Rang» va «Bo‘yoq» shunchalarini farqlash uchun rangshunoslik asoslarini o‘rganmoq zarur. Rangtasvir uchun kerak bo‘lgan rangni palitradra bo‘yoqlarni bir – biriga qorishtirish yo‘li bilan tayyorlab olinadi. So‘ngra tekislik yuzasida ranglar majmuini uyg‘unlashtirgan holda koloritni keltirib chiqaradi. Yagona «Rang» so‘zi rangtasvir jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi va san’atning bu sohasida asosiy vazifasini bajaradi.

Tasavvur qiling, atrof muhitda barcha ranglar yo‘qolib qoladiyu, biz uni oq kulrang ustidan ko‘rayotgan bo‘laylik qanchalik g‘amgin, zerikarli biz ko‘nikmagan manzara kelib chiqadi. Shundagina hayotda rangni qanchalik ahamiyatga ega ekanligini payqab qolamiz.

Har bir narsa o‘z rangiga ega. Ba‘zi narsalarni uning rangi orqali taniymiz. Kattaligi bir xil bo‘lgan aylana shaklidagi uchta narsani ko‘z oldimizga keltiring. Biz ularni o‘ziga xos ranglarga bo‘lib olovrang apelsin, qizil pomidor, och yashil olmaga «aylantira» olamiz.

Rang va meva-chevalarni pishganligi yoki yam - yashil daraxtlarni Sarg‘ayib qizarib borayotganligini va kuzning kirib kelayotganidan darak beradi. Hatto havo qatlami, uzoqdagi o‘rmon yoki tog‘larning rang-barang bo‘yoqlarga bo‘yab, bo‘shliqdagi mo‘ljalni topish imkonini beradi. Kunning turli vaqtlaridan charaqlagan oftob rangidan yeri ko‘k, suvlar rangi o‘zgarib ketadi. Kunning g‘ira shira paytida yashil rang tovlanib ko‘rinadi, qorong‘ulik tushganda esa qizil, pushti ranglar to‘qlashadi, ko‘k, yashil ranglar och tusga kiradi. Olamning go‘zalligi, buyumlar shakli va jismini, bo‘shliq va yorug‘likni rang

fazilatlari orqali ko'ramiz. Rang biz kuzatib, his qilgan buyumni asosiy belgilardan biridir.

Hayotbaxsh tabiatning rang-barang ta'sirlari o'ziga xos ravishda bizni shod etadi. Yil fasllarini har biriga xos bo'lgan o'z ranglari bor. Bahorning nozik, yozning shirali, kuzning charaqlagan va qishning jarangsiz ranglarda ko'rishimiz mumkin. Bahor faslida uyg'onadigan tabiat unchalik charaqlamagan nozik libos kiyadi. Shu bois bahor palitrasи quyidagi yumshoq tuslardan tarkib topadi: och pushti, och jiggarrang, och yashil va boshqalar. Ranglar kontrasini keltirib chiqarish uchun yosh nihol maysa rangi, pushti qizil rang va och xira jigar-ranglardan ham foydalaniladi.

Yoz faslining bo'yoqlari yorqin, sho'x, rangdorligi bilan ajralib turadi. Musavvir palitrasи o'trang yashil, qizg'ish, och pushti, ko'k, to'q sariq va olov ranglar to'ldiradi. Har bir rangdan turli tuman murakkab aks ranglar tizimi tanlab olinadi.

Kuzda esa musavvir palitrasи rang-barang bo'yoqlarga yanada to'lib toshadi. Asar kompozitsiyasiga iliq ranglar go'yo shug'ullana-yotgandek kontraslar ta'sirida ko'k va olovrang, sariq va binafsha ranglar, qizil, sariq, qizg'ish jigarrang va shu kabi ranglar charaqlab, diqqatni o'ziga jalb etadi. Asosiy ranglar gammasini yashil ranglar bilan to'ldirish mumkin.

Qish fasli palitrasida och havorang, binafsha rang, muzning ko'kish rangida shullanishi singari turli ranglar oq-qora keskin ranglar mos keladi. Bu kabi kompozitsiyalardan odatda, tiniq va ravshan ranglardan foydalaniladi. Qishning romantizmi hosil kulrang tuslar yoritib beradi.

Yaponiyada archalarning to'q yashil ninabarglari, jigarrang tog'-lari sakuraning pushti ranglar, g'arb ranglariga ko'ra bo'g'iqroqdek ko'rinadi. Biroq ranglarning go'zal birikmali g'arb namunalari bo'yicha hamohang bo'lmasdani, ular Yaponiyaga xos rang, tuslarga boydir.

Rang insonni nafaqat shodlantiradi, balki uni g'azablantiradi, tashvishga solishi, g'amgin qilib qo'yishga ham qodir. U ruhiyatimizga katta ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi ranglar hotirjamlik bersa, boshqalari aksincha tashvishga soladi. Yashil, havorang ko'k ranglar tasalli beradi, pushti, qizil, sariq, olovranglar esa asabni qo'zg'atuvchi ranglar turkumiga kiradi.

Ranglar kishi organizmiga shartli ravishda va to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etishi bilan birga ularning birikmalari ham tajribalarga to‘la zikir etilgan. Ranglarni daraklaydi.

Odamlar azaldan ranglarga katta ahamiyat berib kelganlar. O‘rta asrlarda pushti rang kuch qudrat va qadr-qimmatni, zangori rang go‘zallikni, buyuklik va mayinlikni, qora va qizil ranglar o‘lim ma’nolarini bildirgan.

Bayram tantanalarda ranglar yanada ulkan ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, qizil rang tantanavorlik va buyuklikni, qora rang g‘am-g‘ussani, oq rang ozodlik va benuqsonlikni, yashil rang umidni bildiradi. Shunisi qiziqki, yagona bir rangni turli halqlar, ramzlarga yoyganlar. Masalan, Xitoy va Osiyo, Afrika mamlakatlari oq rang musibat ramzi deb qaraladi.

Birinchilar qatorida I. Gyote shoir sifatida ishonarli qilib ranglar ta’siri ustida tadqiqot o‘tkazdi va yashil rangda saxiylik, tinchlantiruvchi ko‘z va ruhni dam oldiruvchi mavjudligi, ko‘k rangda sovuq ayozni eslatuvchi, qizil rangda daxshatga soluvchi xususiyat bor ekanligini o‘z kechinmalarida sezaladi.

I. Gyote bir manzaraning o‘zining yashil, sariq, qizil va shu kabi rangli shishalar ko‘zdan kechirib, odamning ruhiy holati o‘zgarishlarini kuzatishni xush ko‘radi. Tasvirchilik faoliyatining ta’kidlashicha, odatda qizil rang va uning turli birikmalari – qo‘zg‘atuvchi, qizdiruvchi, jonlantiruvchi, faollashtiruvchi quvvatbaxsh, sariq rang iliq, tetiklantiruvchi, quvontiruvchi, jozibador, olovrang quvnoqlik, hurramlik, alangalik va hayrli sezgilarni keltirib chiqaradi, deb hisoblanadi. Yashil rang va uning boy birikmalari osoyishtalik, bahuzrlik va tinch kayfiyat baxsh etadi. Ko‘k rangni olaylik u jiddiylik, musibat, g‘am-g‘ussa, ko‘ngilchanlik va osudalikni anglatadi. Binafsha rang qizil va ko‘k ranglar keltiradigan hissiyotlar birikmalari bilan ta’sir etib Ayni bir paytda o‘ziga jalb qilib, quvontiradi va aksincha, g‘am – g‘ussaga solib, o‘zidan uzoqlashtiradi.

Rangni har kim o‘ziga xos ravishda his qiladi. Bolalarga xos hissiyotlar shundan iboratki, ularda ziyraklik, kuch-quvvat, ruhiy kechinmalar, did, xulq hali yetarlicha shakllanmagan. Bola atrof olamni insoniy fazilatlarni, shuningdek, rang madaniyatini o‘rganar ekan, u ranglarning ma’lum qonuniyatlarini bilib olmog‘i, olamning rang-barangligini ongli ravishda kuzatib, tartib foydalanmog‘i kerak. Ma’lumki bolada rang tushunchasi (yashil ko‘kat. Zangori daryo, sariq

quyosh qizil gul va xakozo) qanchalik tor bo'lsa u ulg'aygunga qadar «Bolalarcha idrok» qamrovida qolaveoadi. Aksincha, rang birikmalarining xilma-xillik doirasi kengayib borgan sari. Idrokning tahlil qilish xususiyati ziyraklashadi va tanlov imkoniyatlari ham oshib boradi.

Rang sezish tuyg'usini rivojlantirishda rangtasvir mashg'ulotlari yordam beradi. Avvalo bo'yoqlarni qo'lga olib, uning rangini atrofdagi narsa va buyularga, borliq tabiatga solishtirib ko'rish, oq bo'yoq va suv yordamida ranglar chiqarish, bo'yoqlarni bir-biriga aralashtirib, Yangi rang hosil qilish – bularning bari ko'pdan ko'p ko'ngilxushlik bahshida etadi.

Haqiqiy joylashgan o'rniga nisbatan yaqinroqda bo'rtib ko'rinadigan ranglar - iliq ranglar turkumiga, haqiqiy joylashgan. O'midan nariroqda ko'rinyotganligi – sovuq ranglar turkumiga kiradi.

Musavvirlar bu xususiyatlardan unumli foydalanib, ranglar ko'magida yaqinlik va uzoqlik va tasavvurni aks ettiradi.

Biroq turli ranglar sababli ba'zi shakllar yaqinroq, boshqa birlari uzoqroq joylashgandek tuyuladi. Sariq rangli to'g'ri burchak eng yaqin, och ranglisi esa sal nariroq, to'q baxmal rang undan nariroqda joylashgandek bo'lib ko'rindi.

Ranglarni optik biriktirishning murakkab moslamalari ham mavjud bo'lib, ma'lum bir masofada unchalik katta bo'limgan va bir-biriga tegib turgan uchta rang bo'lagi kuzatilganda ranglarning fazoviy birikmalarini ko'rish mumkin. Mazkur mayda bo'lakchalar bir butun bo'lakka birlashib, ular birikuvidan kelib chiqadigan ranglar majmuasi tarkib topadi.


Masofadan ranglarning birlashuvlari insonning ko'z tuzilishida rang ajrata olish xususiyati bilan bog'liq bo'lib, optik birikuv qonuniyatlari asosida sodir bo'ladi. Musavvir har asarini yaratish jarayonida, ranglarni fazoviy birikuvlari nazarda tutmog'i va bu asar albatta, ma'lum bir masofada tomosha qilib, kuzatilishini hisobga olmog'i zarur.

## 1.2. Rangtasvir fani o'qitilishining asosiy qonun-qoidalari

Rangtasvirni o'qitishning butun tizimi talabaning badiiy timsoliy tafakkurini rivojlantirishga, uning mustaqil ijodkor bo'lib etishishiga ko'maklashuvi zarur. Rangtasvir fani rangshunoslik qonunlariga asoslanib borliqni realistik ifodalaydi, aks ettiradi. Rangtasvir mahorati -

bu tekislikda borliqni to'laqonli tabiiy, chiroyli ranglarda aks etti-rishdir. Buning uchun rassom havoiy perspektiva, masshtabni, hajmni chizmatasvir orqali aks ettirishni puxta egallashi kerak. Tus, rang va chizmatasvirni bir-biriga bog'lab, rangtasvir asarida mohirona foydalanishi zarur. Chizmatasvirsiz faqat bo'yqlar orqali buyumning shaklini, hajmini, borliqdagi o'rmini aks ettirish muhimdir. Agar manzara ishslashda perspektiva qonunlariga amal qilib chizmatasviri ko'rsatib berilmasa, rangning ahamiyati o'rinsizdir. Realistik tasviriy san'atda chizmatasvirga muhim rol beriladi va chizmatasvirni egallash realistik tasvir jarayonida asosiy shartdir. Oldin chizmatasvir ishlaniib, keyin rang beriladi. Rangtasvirchi oldindan chizmatasvir tayyorlamasligi mumkin. Ammo buyuk rassomning asarida aniq chiroyli chizmatasviri rangtasvir bilan chambarchas bog'lanib, yaqqol tasvir hosil qilganini ko'ramiz. Dars jarayonida talaba oldindan chizmatasvir orqali perspektiva, buyumlarni konstruktiv shaklini tusli chizmatasvir va nisbatlar tushunchasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ba'zi talabalar ishlarini tahlil qilganimizda chizmatasvirni to'la egallamasdan rang (bo'yoq)da tasvirlashga urinishadi natijada tus (ton), kolorit, havoiy prespektiva kabi tushunchalar amalga oshmaganligini ko'ramiz. Tasviriy san'atda o'qitish-o'rganishning birinchi bosqichida chizmatasvirdan puxta, jiddiy tayyorlashga katta e'tibor beriladi. Shundagina keyinchalik rangtasvir bilan shug'ullanish jarayoni yaxshi natijalarga olib keladi.

Tasviriy san'at har bir ijodkor shahs uchun juda keng faoliyatlar maydonidir. Rasm chizishni puxta egallash barcha san'at turlarida muhim o'rinni egallyaydi. Shu sababli akademik surat ishslash bilimi, tasviriy faoliyatning barchasida qo'l keladi, muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Qalamtasvir ishslashga va uni o'z ma'naviy hayotida foydalishga odamlar qadimgi paytlardanoq intilib kelganlar. Shu sababdan ham rasm chizishning ma'lum qonun-qoidalari ishlab chiqilgan va yillar, asrlar mobaynida takomillashtirilib kelingan. Qalamtasvir barcha tasviriy san'at turlarining asosiy, negizi desak xato bo'lmaydi. O'quv - mashq vazifalarni puxta, ifodali qilib tasvirlay olish akademik rasm, qonu -qoidalarni atroflicha ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Ular ish faoliyatini sifatli tashkil etilishiga ham ko'p tomondan bog'liqidir. Bundan tashqari, chizishda ishlatiladigan asbob-anjomlar sifatli, talabga javob beradigan bo'lishi kerak.



Rangtasvirda ishlashning eng asosiy talabi, chizish obyektini har tomonlama o'hhshatib aks ettirishdan iborat faoliyatni ta'minlashdir. Buning uchun tasvirni qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarini to'g'ri aniqlash, buyumlarning o'zaro masofasini va perspektiva holatlarini aniq topish talab etiladi. Ishning maqsadga muvofiq chiqishida albatta bilim, tajriba va mahorat yetarli darajada bo'lishi kerak. Bilim olish-o'rganish, mutolaa qilish orqali orttirilsa, tajriba va mahorat ko'p ishslash, tinmay mashq qilish, intilish evaziga orttirilishi ma'lum.

Ta'lif olishning yana bir muhim sharti har bir tasvir etiladigan narsa, hodisa, lavhani aslidan, ya'ni naturadan qarab aks ettirilishiga juda bog'liq ekanligi sir emas. Chunki chizishda hayot haqiqatni ko'rsata olish sifati eng muhimdir desak aslo yanglishmaymiz. Tasvir chizishni o'rganish oddiy natyurmortlarni, shuningdek, alohida-alohida turgan buyumlarni aks ettirish orqali amalga oshiriladi. Ish tasvirni qog'ozga to'g'ri va chiroyli tarzda joylashtirishdan boshlanadi, so'ng har bir narsani o'zaro joylashishi, ular orasidagi masofalar nisbatlar aniqlanadi. Bunda qalam yengil, qog'ozga ortiq darajada bosmasdan ishlatilishi kerak. Aks holda noto'g'ri chiqqan joylar va yordamchi chiziqlarni o'chirg'ich bilan ketkazish qiyin bo'ladi. Shuning uchun o'rtacha yumshoqlik darajasidagi «TM», «M», «2M» rusumli qalamlardan foydalanish ancha qulaydir.

**Tasvirlarni ishslashda perspektiva qoidalariga amal qilinishi zarur.** Ma'lumki, har bir narsa boshqa narsadan uzoqroqda turgan bo'lsa, u ko'zimizga kichrayib ko'rindi, tarhlari ham hiraroq bo'ladi, unga tushayotgan yorug'lik, soyalar ham birinchi plandagi buyumnikidan farqlanib turadi. Bularning hammasi chiziqli va havo perspektivasi hodisasining tabiatda namoyon bo'lishidir. Ana shu jihatdan to'g'ri aks ettirilsa tasvir haqqoniy chiqishi ta'minlanadi. Har bir narsa qog'ozda tasvirlanar ekan, albatta uning turishiga nisbatan ufq chizig'i topib olinishi kerak. U chizuvchi kishining ko'zi balandligidan o'quvchi tasavvur etiladigan gorizontal to'g'ri chiziqnini tashkil etadi. Natyurmort ishslashda uni to'g'ri aniqlab olib, tasvirning haqqoniy chiqishni ta'minlaydi. Narsaning tasvirini gorizontal sathga va vertikal kartina sathiga nisbatan holati ham perspektiva ko'rinishiga muvofiq topiladi. Bunda qo'yilma uzoqlashib borgan sari qisqarib ko'rinishi ufqning tutashish nuqtasiga asosan topib chiziladi.

Tasvir yaratishda fazoviy perspektivaga ham ahamiyat berilishi zarur. Chunki yaqinda joylashib turgan buyum uzoqroqdagisidan tusi, rangi, to‘q-ochligi bilan ajralib turadi. Soya – yorug‘liklarni tasviriga monand o‘xshatib aks ettirish ular o‘rnini to‘g‘ri mutanosib topishga ham bog‘liqligini unutmasligimiz kerak.

Natyurmortlarda manzara tasvirlariga nisbatan perspektiva qoidalarini qo‘llash murakkabroq, chunki buyumlar, narsalar orasidagi farq, masofalar kamroq bo‘lib, ular diqqat bilan kuzatilib aniqlanadi. Manzara, tabiatdagi perspektiva esa yaqqolroq seziladi. Masalan, tekis yo‘nalgan temir yo‘lni kuzatsak bu hodisa aniq ko‘rinadi. Undagi relslar uzoqlashgan sari bir-biriga yaqinlashib, ufqqa borib birlashib, nuqta bo‘lib ikki tomondagi sim yog‘ochlar tobora kaltalashib borayotgandek tuyulishi fikrimizni tasdiqlaydi. Bu hodisani kuzatib perspektiva qonuniyatlarini anglab olish, tahlil qilish, tegishli bilimlarni olish mumkin.

Rasm chizish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etilishi tasvir yaratishning eng muhim pedagogik shartlaridan biridir. Buning uchun rasm chizganda uning hajmiga, ifodasiga ham, har bir narsaning o‘zi mavjud bo‘lib turgan atrof muhitiga ham obyektiv tarzda yondoshshilishi haqqoniy tasvirlanishi kerak.

San‘atning gnoseologik ahamiyati undagi mavjud badiiy go‘zallik bilan o‘lchanadi. Rassom yo ahamiyatli narsalarga yoki zaruriyatga yon bosishi mumkin, natijada subyekt bilan obyekt o‘rtasida muayyan aloqadorlik vujudga keladi. Ba’zan rassom o‘z idealini tasvirlayotgan obyektda ko‘radi. Shunda asar naturalistik holatdan chiqib rassom ruhiyati tanasiga aylanadi. Agar rassom obyekt mohiyatini qabul qilmasa va tushunishni istamasa yaratgan asarida kamchilik kuchayadi, ya’ni obyekt va subyekt birligi buzilgan bo‘ladi. Rassom voqeylek ichiga kirib borgan sari uning qalbiga obyektiv go‘zallik kiradi.

### **1.3. Rangtasvir fani uchun ashyolar**

Rassom imkoniyatlari benihoya cheksiz. U gul yaproqlaqlarining nozik titrog‘i va cheksiz koinotni, kundalik turmush tashvishlar va jahonsumul ahamiyatga ega bo‘lgan voqeа-hodisalarni tasvirlay olish qoboliyatiga ega. Unda yuzlab kvadrat metr keladigan tasvirlarni tasvirlay olish imkoniyatlari mavjud. Ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun rassom o‘nlab ashyolardan foydalangan holda, yangi imkoniyatlarni

ochish uchun tirishadi. Qalam, akvarel, qog'oz, guash, moybo'yoq – bularning barchasi ijodkorning yo'lida san'at asariga aylanadi.

Rangtasvir fanining asosiy bilimlarini egallashda, kelajakda buyuk mutaxassis bo'lib yetishish bilan bir qatorda, rangtasvir uslubini mukammal tushunib, foydalanadigan ashyolarning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish natijasida ularni amalda qo'llay bilish mutaxassisni asosiy vazifalaridan biridir. Qadimda turli xil giyohlar va tabiiy moddalarni maydalab, kukun holiga keltirib ulardan bo'yoq sifatida foydalanilgan. Hozirgi davrga kelib moybo'yoq, akvarel, tempera, akril, guash bo'yoqlari mavjud bo'lib, ular asosan zamonaviy texnika yordamida tarkibiga qarab, har xil kimyoviy moddalar aralashmasi yordamida tayyorlanadi.

Akvarel bo'yogining bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular haqda to'xtalib o'tamiz:

1. Qattiq va to'rtburchak shakldagi akvarel bo'yoqlar.

2. Fayans idishchalardagi yumshoq akvarel bo'yoqlar.

3. Tempera va moybo'yoq shaklidagi qo'rg'oshin idishlardagi akvarel bo'yoqlar.

Akvarel bo'yoqlarining asosiy qismini o'simlik yelimi, gummi arabik, dekstrindragant, olcha yelimi, asal, glitserin va boshqa moddalar tashkil etadi. Yana bir turdag'i akvarel bo'yoqlari ham mavjud bo'lib, ular asosan arxitektura chizmalarida ishlataladi. Bunday akvarellar tarkibida duradgorlik yelimi va baliq yelimi tashkil etadi. Qadimda qattiq turdag'i akvarel bo'yoqlari tayyorlangan bo'lib, yuqorida aytib o'tganimizdek ular chizmachilik ishlarida turli xil arxitektura ko'rinishlari va planlarini chizishda ishlatalig'an.



### **MATERIALLAR VA CHIZIQLAR TUSLARI**

Har bir qalamning chiziqlar bilan bo'yash jarayonida ochdan to'qqacha bo'lган tuslari bo'ladi. Tuslarining to'q yoki ochlik darajasi qalamning yumshoq yoki qattiqligiga bog'liq.

Arxitektorlar va rassomlar aniq yo'nalish bo'lган chizmalarda foydalanadi. Izlanishlar va rivojlanishlar natijasida Enkubasyon chiziqli taraqqiyot yuzaga keldi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> The complete book of drawing techniques a ofessional guide for the artist. Royal academy of arts. 2011. P. 36.



**1 teks qo'lash uchun mo'yqalam**


**2 № 18 sintetik dumoloq mo'yqalam**

**3 № 14 sintetik dumoloq mo'yqalam**

**2 № 8 suvsar mo'ynasi dumoloq mo'yqalam**

**2 № 5 suvsar mo'ynasi dumoloq mo'yqalam<sup>2</sup>**

